

IMOM TABARIY SHAXSIYATI, HAYOTI VA FAOLIYATI

Abdurazaqov Maxkambek Dilshodbek o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom tarixining yorqin allomalaridan biri, "musulmon tarixchilari otasi" Imom Tabariy hayoti va faoliyati, hamda, allomaning ma'naviy merosi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tabariy, Omul, islom tarixi, "musulmon tarixchilari otasi", tafsir, muarrix, Bag'dod.

Abstract: This article discusses the life and work of Imam Tabari, one of the brightest scholars of Islamic history, the "father of Muslim historians," as well as the scholar's spiritual legacy.

Keywords: Tabari, Amul, Islamic history, "father of Muslim historians", commentary, historian, Baghdad.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и деятельность имама Табары, одного из самых ярких ученых-исследователей ислама, «отца мусульманских историков», а также духовное наследие ученого.

Ключевые слова: Табары, Амуйль, исламская история, «отец мусульманских историков», комментарий, историк, Багдад.

Imom, muhaddis, mufasssirlar shayxi, musulmon tarixchilari otasi, mujtahid martabasiga erishgan qomusiy ilmlar egasi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy hijriy uchinchi asrda yashab ijod etgan yirik ulamolardan biri edi. Olim hijriy 224/225-sanada hozirgi Eron hududiga qarashli bo'lgan Tabariston

viloyatining Omul (أمل) shahrida dunyoga keldi¹. Yoshligidan zehni o'tkir, ilmga chanqoq bo'lgan yosh Muhammadning qobiliyatlari otasini sergak tortdiradi. Imom Tabariyning otasi Jarir ibn Yazid ham o'z shahrida parhezkorligi, taqvosini, zuhdi, islomga rag'batini kuchli ekanligi va musulmonlarga ko'p foydasi tegishi bilan tanilgan kishi edi. Shu sababdan farzandi qobiliyatlaridan voqif bo'lib, o'g'lini dastlab Omul shahridagi taniqli shayxlarga ilm olish uchun yo'llaydi².

Imom, mufassir va tarixchi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy o'zining betakror ilmlari, o'lmas asarlari va ko'zni qamashtiruvchi bitiklarini qo'lga kiritish uchun tarix xotirasini o'z huzuriga zohir etishga majbur qilgan, keyinchalik olimlar uchun mayoq bo'lib, asarlari ulkan boylikka aylangan buyuk zotdir. Imomning tafsir, qiroat va tarix ilmlarida ajralib turadigan ulkan ikki asari bor: "Tafsir at-Tabariy – "Tarixi Tabariy".

U Abbosiylar davlati davrida (224 - 310 hijriy) yillar orasida yashab, uning ko'plab xalifalari bilan zamondosh bo'lgan: u xalifa Mutavakkil davrida tug'ilgan va Al-Muntasir, Al-Musta'in, Al-Mu'tazz, Al-Muhtiy, Al-Mu'tadid, va Al-Muktafi Billoh davrida yashagan. U zot rahimahulloh, xalifa Muqtadir xalifalik davrida vafot etgan³.

Bu davr ilm-fan va ma'rifat gullab-yashnagan davrlardan biri edi. Islom ilmlari vujudga keldi, fiqh maktablari vujudga keldi, ilmiy yo'nalishlar aniqlandi. Islom ilmlariga oid ko'plab asarlar va tasnifotlar yaratildi. Sahih hadislar to'plandi va "sunnat" kitoblari yozildi. Turli san'atlarda asarlar paydo bo'ldi, barqarorlik, erkinlik va intellektual harakat vujudga keldi.

¹ Silsilatu min ulamo al-islam. Imom Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. – Iyhob Said an-Najmiy va Ahmad Said an-Najmiy.

² Daloili Imom at-Tabariy – An-Najaf; Matbuatul Xidriyya – 1929.

³ الإمام الطبري سيرته - عقيدته - مؤلفته. الدكتور علي بن عبد العزيز الشبل - مكتبة الرشد ٢٠٠٤. ص. ٣١٣.

Imom Ahmad ibn Hanbal rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Yer yuzida ulamolar xuddi yeru suvning qorong‘uligida yo‘l topishga yordam beruvchi yo‘lchi yulduzga o‘xshaydi. Yulduzlar g‘oyib bo‘lganda yo‘lovchilar adasha boshlaydilar», - deya marhamat qilganlar.

Hadisi sharifda ta’rifi kelgan ana shunday yo‘lchi yulduzlardan biri Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir Tabariy bo‘lib, bu olim va uning ilmiy merosi islom ummati va qolaversa, butun insoniyat uchun juda ham qimmatli hisoblanadi.

Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir Tabariyning tafsir kitoblari ichida eng mo‘tabarlaridan sanaluvchi «Tafsiri Tabariy» asari va «Musulmon tarixchiligining otasi»⁴ unvoniga sazovor etgan «Tarixi Tabariy» nomi bilan mashhur asarlari orqali tanimagan ilm toliblari kam topiladi.

Tabariyning nasl-nasabi.

Muhammad ibn Jarir ibn Yazid ibn Kasir ibn G‘olib at-Tabariy, uning kunyasi Abu Jafar bo‘lgan, garchi u farzand ko‘rmagan va turmush qurmagan bo‘lsa ham. Imom Tabariy Forsning katta viloyati Tabaristonning Omul shahrida tug‘ilgan⁵.

839-yilda hozirgi Eronning tarixiy viloyati Tabariston tavallud topgan Abu Ja’far rahimahulloh o‘zining yoshligi haqida so‘zlab: «Yetti yoshimda Qur’oni Karimni yod oldim. Sakkiz yoshga to‘lganimda, taroveh namozlarida insonlarga namoz o‘qib berar edim. To‘qqiz yoshga to‘lganimda esa, hadis yoza boshladim», - degan ekanlar⁶.

⁴ Tarix at-Tabariy – Dor al-Maorif, Misr. Tahqiq Muhammad ibn Abul Fazl Ibrohim. I-XI juz.

⁵ الإمام الطبري سيرته - عقيدته - مؤلفته. الدكتور علي بن عبد العزيز الشبل - مكتبة الرشد ٢٠٠٤.

⁶ <https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/imom-tabariy-qirq-yil-davomida-kuniga-qirq-varaqdan-asar-yozgan-olim?print=on> 05.06.2024

Bo'lajak olim 12 yoshida ilm yo'lida safar qilgan. Ko'plab ilm markazlarida bo'lib, taniqli ulamolardan dars olgan. Imom Ahmad ibn Hanbal rohimahulloh bilan uchrashish umidida Ray shahriga safar qildi, so'ng ilm va ulamolar poytaxti Bag'dodga yo'l oldi. Ammo vafoti haqidagi xabar unga yetib bormasdan turib, Bag'dod, Kufa, Basra va Vositda o'z davrining ulamolaridan bahramand bo'lish uchun safarini davom ettirdi, fiqh ilmini ulamolardan o'rgandi, tafsir va qiroatda mohir edi.

Keyin Shomga safar qilib, fiqh va tafsir bilan birga Shom ahlidan ham qiroat olib, keyin Imom Al-Avzoiyning markazi bo'lgan Bayrutga safar qildi va Imom Molik rahimahulloh shogirdlaridan Molikiy fiqhini ta'lim oldi.

U Misr, Suriya va Bag'dod o'rtasida ko'chib yurdi, so'ng o'z vatani Tabaristonga qaytib keldi, lekin u yerda qolishni xushlamadi. Bag'dodga safar qilib, umrining oxirigacha shu yerda yashadi.

Bir necha yillik ilmiy safarlardan so'ng 870-yili Misrdan Bag'dodga kelgan olim keyingi 50 yillik hayoti davomida o'ta barakali va sarmazmun ilmiy faoliyat olib borgan⁷.

O'zini butunlay ta'lim va ilmga bag'ishlagani sababidan zamondoshlari va keyingi avlodlarning yuksak e'tirofi va tahsiniga sazovor bo'lgan.

Tabariyning shaxsiy fazilatlarini.

U zotni xalq orasida suyukli qilgan buyuk axloqi bor edi. Shogirdlaridan biri uning axloqini shunday ta'riflaydi: "Abu Ja'far zohiridan botini go'zalroq edi – tashqi ko'rinishi botinidan pastroq edi – shogirdlariga chiroyli muomala qilardi. U hamrohlarining ahvolini tekshirar, barcha yurish-turishida odobli, taomi va

⁷ <https://suwaidan.com/الإمام-أبو-جعفر-ابن-جرير-الطبري>
SJIF:5.219

kiyimida axloqli, aka-ukalariga yumshoq fe'l, atrofidaqilar bilan hazillashib yurardi".

Tabariyning zohidligi.

Tabariy bu dunyoda uning lazzatlari va jozibalariga befarq bo'lgan zohid bo'lib, ilm izlab, qilgan ishlariga juda oz qanoat qilardi. Imom Tabariy podshohlar, hukmdorlar va shahzodalardan hadya olishdan saqlanardi. Ibodatga, zohidlikka, taqvoga va haq yo'lida turishga shunchalik ixlos qo'ygan ediki, bular uni qabul qilmadi. Uni malomatchilar malomat qildilar. Lekin u solihlardan bo'ldi.

Imom Abu Bakr Xatib Bag'dodiy o'zining «Tarixi Bag'dod» kitobida shunday yozadi: «Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy... shunday olim ediki, so'zlari hukm o'rnida qabul qilinardi, uning ra'yiga murojaat qilishardi. U o'z asrida hech kim muvaffaq bo'lmagan darajada ilm oldi va ularni yozdi. U Qur'oni karimni to'la yod olgan, qiroat turlarining barchasini chuqur o'zlashtirgan, ularning ma'nolarini teran o'rgangan olim edi. U hadis ilmida ham benazir bo'lib, sahobalar, tobeinlarning hayotlari, haqida ham hammadan yaxshiroq bilar edi»⁸.

Tabariyning aql-zakovati.

Alloh taolo Imom at-Tabariyga g'ayrioddiy aql va yuksak yod olish qobiliyatini ato etgan va u bir kechada a'ruz ilmini to'liq o'rgangan edi. Buning dalili shunda ediki: "Bir kuni bir odam oldimga kelib, mendan "a'ruz" haqida – she'rning o'lchovlari va vaznlari haqida so'radi va men shu kungacha bu ilm bilan mashg'ul bo'lmagan edim. Shuning uchun men unga ertaga javob beraman dedim. O'sha kechada bir do'stimdan Xalil ibn Ahmadning nasr kitobini so'radim va uni

⁸ Silsilatu min ulamo al-islam. Imom Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. – Iyhob Said an-Najmiy va Ahmad Said an-Najmiy.

tuni bilan o'rganib chiqdim. Ertasiga mendan a'ruz ilmi haqida so'ragan kishiga javob berdim."

Tabariyning iffati.

Bir kuni Imom Tabariy Dovud ibn Ali az-Zohiriy bilan bir masala yuzasidan bahslashayotgan edi, suhbat Dovud bilan to'xtab, uning hamrohlarini xafa qildi. Shunda ulardan biri o'rnidan turib, Abu Ja'farga qattiq va ranjituvchi so'z aytdi. Undan yuz o'girib, majlisdan turdi va Dovudga javoban (100) sahifali kitob yozdi. Keyin Dovud vafot etganini eshitib, kitobini oldiga borib, uni yirtib tashladi.

Tabariyning kamtarligi.

Tabariy hamrohlari, tashrif buyuruvchilari va shogirdlariga nisbatan juda kamtar edi. O'z maqomida kata ketmay, ilmida kibrli bo'lmay, chaqirilgan yerga albatta borardi. Imom Tabariy hech kimga gina va nafrat qo'ymasdi va hammadan rozi bo'lardi va kechirardi.

Imom Tabariy yuksak e'tiroflarga sabab bo'lgan «Tafsir»ini yetti yil davomida shogirdlariga aytib turib yozdirgan. Xatib Bag'dodiy shunday deydi: «Ali ibn Ubaydulloh Simsimiydan eshitdimki, ibn Jarir Tabariy qirq yil davomida har kuni qirq varaqdan asar yozgan».

Tabariy tarix, fiqh va tafsir va qiroat ilmlaridan tashqari arab she'riyati, nahv, matematika va tibbiyot ilmlarini ham yaxshi o'zlashtirgan. U zot vaqtini juda ham tartibli ravishda ilm olish va ta'lim berishga taqsimlab, shunga qat'iy amal qilgan.

Xatib Bag'dodiy rivoyat qiladi: «Abu Ja'far Tabariy bir kuni o'z shogirdlariga aytdi: «Tafsir o'qishni xohlaysizlarmi, yozib beraymi?» – dedi.

Ular: «Qancha varaq bo‘ladi?» – deb so‘rashdi. U kishi: «O‘ttiz ming sahifa bo‘lsa kerak...» - deb, javob berdi. Shunda shogirdlari: «Kitobni oxiriga yetmasdan umrimiz tugab qoladi-ku!» - deb, javob berdilar. So‘ng Abu Ja‘far Tabariy kitobni uch ming sahifaga qisqartirib ta‘lif qildi.

So‘ngra shogirdlaridan: «Odam alayhissalomdan bizning vaqtimizgacha bo‘lgan olam tarixini yozib beraymi» - deb, so‘radi. Ular: «Necha sahifa bo‘ladi?» -deb so‘rashdi. Abu Ja‘far tafsir kitobining adadicha miqdorni aytgan edi, shogirdlari ham xuddi o‘shanday javob qaytarishdi. Shunda Abu Ja‘far: «Inna lillahi! Odamlarda himmat kamayib ketibdi» – deb, tafsirni qisqartirgan miqdorda qisqartirib yozdi.

Imom Tabariy to‘plagan ilmlari bilan ilm-fan qomusiga aylandi. U yozgan mashhur asarlar quyidagilardir⁹:

1. “Jomi’ al-Bayan fi ta’vil oyatul-Qur’on” (جامع البيان في تأويل آي القرآن): “U Tafsir at-Tabariy nomi bilan mashhur bo‘lib, bu ilmda asosiy manba bo‘lgan.
2. “Xalqlar, elchilar va podshohlar tarixi” (تاريخ الأمم والرسل والملوك): U Tarix at-Tabariy nomi bilan mashhur bo‘lib, tarix o‘quvchilari uchun ajralmas qo‘llanmaga aylangan.
3. “Tahzib al-Osor” (تهذيب الآثار): U zot Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarni to‘plab, qayta tartibga solib, tasnif qilmoqchi bo‘ldilar, lekin tugatmay vafot etdilar.
4. “Mamlakat olimlari o‘rtasida islom qonunlari qoidalari borasidagi ixtiloflar”. (اختلاف علماء الأمصار في أحكام شرائع الإسلام)

⁹ https://ar.wikipedia.org/محمد_بن_جرير_الطبري
SJIF:5.219

5. “Al-Xafif fi Ahkam shariat al-islom” (الخفيف في أحكام شرائع الإسلام) : U vazir Abbos ibn al-Hasanning iltimosiga binoan yozgan.

6. “Yaxshi xulq va go‘zal axloq” (أدب النفوس الجيدة والأخلاق الحميدة) .

Imom Tabariyning ustozlari¹⁰:

1. Al-Hasan ibn Muhammad Az-Zafroni: Imom Shofe’iy fiqhini undan o‘rgangan. (الحسن بن محمد الزعفراني)

2. Abu Muhammad Abdulloh ibn Vahb: Imom Molik fiqhini undan o‘rgangan. (أبي محمد عبد الله بن وهب)

3. Ahmad bin Mani' al-Bag‘aviy. (أحمد بن منيع البغوي)

4. Muhammad bin Homid ar-Roziy. (محمد بن حميد الرازي)

5. Abu Hammam Valid bin Shujo. (أبو همام الوليد بن شجاع)

6. Abu Kurayb Muhammad ibn Al-Ala. (أبو كريب محمد بن العلاء)

7. Yaqub ibn Ibrohim al-Davraqi. (يعقوب بن إبراهيم الدورقي)

8. Abu Said al-Ashja. (أبو سعيد الأشج)

9. Amr ibn Ali. (عمرو بن علي)

10. Muhammad bin Bashar. (محمد بن بشار)

Imom Tabariyning shogirdlari:

1. Ahmad ibn Komil qozi. (أحمد بن كامل القاضي)

2. Muhammad ibn Abdulloh ash-Shofi’iy. (محمد بن عبد الله الشافعي)

3. Muxallad ibn Jafar. (مخلد بن جعفر)

4. Ahmad ibn Abdulloh ibn Al Husayn. (أحمد بن عبد الله بن الحسين)

5. Ahmad ibn Muso bin Abbos Al-Tamimiy. (أحمد بن موسى بن العباس)

(التميمي)

¹⁰ الإمام الطبري سيرته - عقيدته - مؤلفته. الدكتور علي بن عبد العزيز الشبل - مكتبة الرشد ٢٠٠٤

6. Abdulloh ibn Ahmad al-Fargʻoniy. (عبد الله بن أحمد الفرغاني)
 7. Abdul Vohid bin Umar bin Muhammad Abu Tohir Al-Bagʻdodiy Al-Bazzoz. (عبد الواحد بن عمر بن محمد أبو طاهر البغدادي البزاز)
 8. Muhammad ibn Ahmad ibn Umar Abu Bakr Al-Dhori Al-Ramli. (محمد بن أحمد بن عمر أبو بكر الضرير الرملي)
 9. Muhammad bin Muhammad bin Fayruz. (محمد بن محمد بن فيروز)
- Mufasssir, faqih, muhaddis va tarixchi olim ibn Jarir Tabariy 86 yoshida Bagʻdodda vafot etgan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: «Kimga ilm talab qilib turgan holida ajali kelsa, u bilan paygʻambarlarning oʻrtasida faqat paygʻambarlik boʻladi, xolos», (Imom Termiziy rivoyati) degan muborak soʻzlari hayotining soʻnggigacha oʻzini ilmga bagʻishlagan olimlar haqida aytilgan boʻlsa kerak. Imom Tabariy ana shunday unvonga sazovor olimlardan biri edi¹¹.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. (Tarixi Bagʻdod, Muʻjamul adaba, Ibn Xallikon Vafayatul aʻyan, Tabaqot ash-shafiyya lis-Subkiy, Lisanul miyzan.)
2. Shayx Xuzariy. “ad-Davlat al-abbosiyyatu” – Bayrut: Dor al-qalam. 1986.
3. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix.
4. At-Tabariy, Doktor Abdul Rahmon Al-Azzaviy, Dorul-Kitob, Bagʻdod, 1999.
5. Taha Muhammad Najjar Ramazon (1426 hijriy - 2005 milodiy). Mustafo Muhammad Xelmi (muharrir). Imom at-Tabariy nazarida din asoslari (birinchi nashr). Saudiya Arabistoni Qirolligi - Ar-Riyod

¹¹ Abu Jaʻfar Muhammad ibn Jarir ibn Yazid Tabariy. Tarix ar-rusul val-muluk. Muhammad Abulfozil Ibrohim. I-XI. – Qohira: Dor-ul maʼrifat 1967.
SJIF:5.219

6. Husayn Assi (milodiy 1992). Abu Jafar Muhammad bin Jarir at- Tabariy: va uning “Xalqlar va podshohlar tarixi” kitobi . Bayrut.
7. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. – Maktabatur rushd. – Aliy ibn Abdulaziz ibn Aliy Rossaba.
8. Silsilatu min ulamo al-islam. Imom Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. – Iyhob Said an-Najmiy va Ahmad Said an-Najmiy.
9. Daloili Imom at-Tabariy – An-Najaf; Matbuatul Xidriyya – 1929.
10. Soriyh as-sunna – Dor ilm as-salaf, 2007. Abu Abdula’la Xolid ibn Muhammad ibn Usmon al-Misriy.
11. Tarix at-Tabariy – Dor al-Maorif, Misr. Tahqiq Muhammad ibn Abul Fazl Ibrohim. I-XI juz.